

TERMIZ SHAHRIDA NAVBATDAGI JINOYATCHILIK MUHOKAMASI HAMDA SAYYOR QABUL O‘TKAZILDI



Jinoyat va huquqbuzarliklarni oldini olishda javobgarlikning muqarrarligini ta’minlash bilan birga, jamoatchilik ishtirokida jinoyat va uning salbiy oqibatlarini muhokama qilib borish ham sodir etilishi mumkin bo’lgan salbiy holatlarni oldini olishga xizmat qiladi.

Shahar IIB rahbariyati hamda Termiz shahar soliq inspeksiyasi tomonidan mahallalarda doimiy o’tkazib kelinayotgan jinoyatchilik muhokamasi tadbirlari ham ayni maqsadlarga qaratilgan.

Keng jamoatchilik vakillari va mutasaddilar ishtirokida sodir etilgan og’ir turdagi jinoyatlar muhokama etildi.

Yig’ilishda, atrofda bo’layotgan har qanday voqea va hodisaga e’tiborli bo’lish, unga dahldorlik hissi bilan yashashgina jinoyat va huquqbuzarliklarning oldini olishdagi eng

samarali vosita ekanligi tushuntirildi.

Termiz shahar hokimligi Axborot xizmati